

Sevinch MAJIDOV,
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti tadqiqotchisi
E-mail: sevinchmajidov@gmail.com

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti dotsenti, f.f.n. B.X.Karimov taqrizi asosida

FAYZULLA XO‘JAYEVNING HAYOT YO‘LI, UNING JADIDCHILIK FAOLIYATI HAMDA SOG‘LOM VA BARKAMOL AVLOD TARBIVASIDA TUTGAN O‘RNI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Fayzulla Xo‘jayev Buxoro amirligi qozilar mahkamasida, umuman, qozi sudlarida hukm surgan qonunsizliklar, qozilarning shariat qonunlariga xilof ishlari mohiyatini xalqqa tushuntirib berishga harakat qiladi. Fayzulla Xo‘jayevning mushohada yuritishicha, jamiyatda amalga oshiriladigan o‘zgarish va islohotlarning birdan-bir asosi faqat shariat qoidalari bo‘lmog‘i darkorligi tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Fayzulla Xo‘jayev, qozilar, qozi sudlari, davlat, jamiyat rivoji, barqaror taraqqiyot.

ЖИЗНЬ ФАЙЗУЛЛЫ ХОДЖАЕВА, ЕГО ЖАДИДСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ, ЕГО РОЛЬ В ВОСПИТАНИИ ЗДОРОВОГО И ПОКОЛЕНИЯ.

Аннотация

В данной статье Файзулла Ходжаев пытается разъяснить народу беззаконие, царящее в судах судей Бухарского эмирата, в целом в судах судей, и характер нарушений судьями законов шариата. По наблюдению Файзуллы Ходжаева, было проанализировано, что единственной основой проводимых в обществе изменений и реформ должны быть правила шариата.

Ключевые слова: Файзулла Ходжаев, судьи, судебские суды, государство, развитие общества, устойчивое развитие.

THE LIFE OF FAYZULLA KHODJAYEV, HIS JADID ACTIVITIES, HIS ROLE IN EDUCATION OF A HEALTHY GENERATION

Annotation

In this article, Faizulla Khojayev tries to explain to the people the lawlessness prevailing in the court of judges of the Bukhara Emirate, in general, in judges' courts, and the nature of judges' violations of Sharia law. According to Fayzulla Khojayev's observation, it was analyzed that the only basis for the changes and reforms implemented in the society should be the Sharia rules.

Key words: Faizulla Khojayev, judges, judges' courts, state, community development, sustainable development.

Kirish. O‘zbek xalqi tarixida XX asrning boshlanishi o‘ziga xos davrlardan biridir. Zero, bu davr mamlakat hayotida ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma‘rifiy o‘zgarishlar bilan belgilanadi. Avvalambor bunday o‘zgarishlarga sabab bo‘lgan omillardan biri-o‘tgan asr boshlarida tarix sahnasiga kirib kelgan jadid ma‘rifatparvarlaridir. Jadidlar avvalambor xalqni yangi madaniyatga, ma‘rifatga chaqirib, millatni uyg‘otish, xalqning mustaqilligi uchun birinchi navbatda maorif va ta‘lim-tarbiyani tubdan o‘zgartirish, yangi maktab tuzish, ularni boshqarish masalalarini asosiy o‘ringa ko‘tardilar. Jadidlar orasida o‘zining vatanparvarligi bilan barchaga o‘rnak bo‘lgan mutafakkir va siyosiy arbob Fayzulla Xo‘jayevdir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Atoqli davlat va siyosat arbobi, Buxoro jadidchiligining faol ishtirokchisi partiyasining rahbarlardan biri Fayzulla Xo‘jayev 1896 yili Buxoro shahrida yirik savdogar oilasida tug‘ilgan. U yoshligida eski maktabni bitirib Buxoro madrasasida o‘qigan. 1907-1912 yillarda Fayzulla Xo‘jayev Moskvada shaxsiy o‘qituvchilardan ta‘lim oladi. 1913 yilda jadid sifatida faoliyat ko‘rsatadi va xalq orasida ma‘rifat tarqatish bilan shug‘ullanadi. 1917 yildan partiyasi tashkilotchilaridan biri bo‘ladi. Buxoro jadidlari so‘l qanotining inqilobiy ruhda a‘zolaridan bo‘lib 1920 yilda Buxoro amirini taxtdan ag‘darishga harakat qiladi. 1920 yilda Turkiston muhojirlikda bo‘lib, partiyasining Turkiston byurosini tashkil qilgan. Fayzulla Xo‘jayev tomonidan tuzilgan partiyaning dasturi shariat asosida bo‘lib xalqning milliy an‘analarini va o‘ziga xos xususiyatlarini e‘tiborga olgan. Buxoro amiri taxtdan ag‘darilgach, hokimiyat yosh buxoroliklar qo‘liga o‘tdi va Fayzulla Xo‘jayev hukumat rahbari etib saylandi. U bu lavozimda Buxoroda xalq demokratik respublikasini tashkil etish hamda mustaqil siyosat olib borishga Rossiya va Xorijiy mamlakat bilan teng muloqot qilishga intilgan. 1922 yilda Germaniyaga chet el savdo namoyandalari va yirik savdo kompaniyalari bilan shartnoma tuzishga borgan. 1925 yilda Fayzulla Xo‘jayev O‘zbekiston xalq nozirlari kengashining raisi etib saylandi. O‘z faoliyatida o‘zbek xalqining iqtisodiy va madaniy ravnaqiga xizmat qilishga intildi. Fayzulla Xo‘jayev Sovet tuzumi tomonidan uning faoliyatini cheklash siyosatiga qarshi chiqdi. U uzoq yillar davomida markazning tazyiqi ostida ishlashga majbur bo‘ldi. 1926 yilda jadidlar tarixiga bag‘ishlangan kitobi uchun kompartiya tomonidan qattiq ta‘qibga olindi. Fayzulla Xo‘jayev hukumat rahbari sifatida O‘zbekiston xo‘jaligi (paxtachilik, irrigasiya, kapital qurilishi, chorvachilik) ni rivojlantirishga maorif va madaniyatni ravnaq toptirishga harakat qildi. Fayzulla Xo‘jayev 1937 yili qatag‘on qilinadi va o‘limga mahkum qilindi. Fayzulla Xo‘jayev qabrining qayerdaligi noma‘lum [1].

Tadqiqot metodologiyasi. Fayzulla Xo‘jayev hamda barcha jadid mutafakkirlari milliylikni saqlagan holda, kundalik turmushdan tortib hamma sohalarida-maorif, diniy qarashlar, ta‘lim, madaniyat va san‘atning yangi turlarini joriy etish, aholiga tarixiy ongini singdirish kabi islohotlarni o‘tkazish g‘oyasi bilan maydonga chiqdilar. Buning uchun ular birinchi navbatda maktablarni yangidan isloh qilish, farzandlarning jismoniy, ruhiy, diniy tarbiyalariga nihoyatda katta e‘tibor berish kerakligi to‘g‘risidagi masalalarga e‘tiborni qaratdilar. Jadidlarning bu g‘oyalari sekin-astalik bilan siyosiy g‘oyaga aylanib, yuqorida qo‘yilgan maqsad uchun albatta mustaqillikka erishish kerakligini tushuna boshladilar.

Tahlil va natijalar. Jadidlar jamiyatni tubdan o‘zgartirish va uni isloh qilish uchun quyidagi masalalarga asosiy e‘tiborni qaratdilar:

a) ijtimoiy hayotda va davlat tizimida o‘z davri uchun nisbatan taraqqiyparvar sanalgan konstitutsiyali monarxiya tarafdori bo‘lib chiqdilar va siyosiy, iqtisodiy-madaniy hayotni isloh qilish orqali yangi hayot qurmoqchi bo‘ldilar. Ammo ular niyat qilgan konstitutsiyali monarxiya Eron, Turkiya kabi mamlakatlarda o‘zini oqlamaganini ko‘rgan Buxoro jadidlari tez orada “yosh buxoroliklar” siyosiy partiyasini tuzdilar;

b) iqtisodiy hayotda farovonlikka erishish jahon tajribasida ko'zga ko'rinarli natijalar berayotgan jamiyat afzalligini bilib, temuriylar davrida vujudga kela boshlagan savdo sarmoyasini yangi texnikaga asoslangan yirik korxonalar qurish orqali takomillashtirish bo'ldilar. Iqtisodiy hayotda ular xorijiy mamlakatlar kapitalini kiritishdan ko'ra tovar ishlab chiqarishni ko'proq rejalashtirdilar;

v) ma'naviy hayotda imon va e'tiqodni bosh omil deb belgilaganlari holda islom dini qadriyatlarini o'rta asrda erishilgan olamshumul tajribasiga tayanib, islom hayotning barcha jabhalarida dasturulamal deb bildilar;

g) ma'naviy hayotda va falsafiy ta'limotda tasavvufni, ayniqsa, naqshband tariqatini insonni kamolga yetkazuvchi yo'l, deb tanidilar;

d) maorif tizimi ta'lim va tarbiya sohalarini qamrab olishini nazardan qochirmay, dastlabki bosqichdagi tarbiya muassasalari sifatida jadid maktablarini vujudga keltirib, uning afzalliklarini targ'ib qildilar. Maktab, ta'lim va tarbiyani yaxlit holda olib borilishiga erishish uchun yangi dastur, yangi darslik va qo'llanmalar, hatto yangicha o'qita oladigan murabbiylar yetishtirishga harakat qildilar;

e) madaniyatda jahonni eng oldingi mamlakatlari qatoriga chiqishni istagani uchun ham xorijdagi madaniy muassasalar-teatr, matbuot, matbaa, kutubxonalarni joriy qilishga shoshildilar;

j) o'zligini anglash va jahonga chiqish til siyosati bilan bog'liq ekanini ommaga anglatib, o'z milliy tilini takomillashtirib, mahalliy aholi tomonidan uni to'la o'zlashtirilishiga intildilar. O'z milliy tilini davlat tili deb e'lon qilish (1861 y. Buxoro) bilan qoniqmay, xorijiy tillarni puxta o'rganishga kirishdilar. Behbudiy ta'biri bilan aytganda—"ikki til emas, to'rt til kerak";

z) Milliy kadrlarni rejalashtirib, iste'dodli talabalarni xorijiy mamlakatlarga, Turkiya, Germaniya kabi mamlakatlarga borib o'qishlarini ta'minladilar [2].

O'sha davr uchun bunday mashaqqatli ishlarni bajarish qanchalik mushkul ekanligini ko'z oldingizga keltiringchi? Shuni alohida e'tirof etib o'tish kerakki, bugungi kunda mustaqillik sharofati bilan o'sib kelayotgan yosh avlod xorijiy mamlakatlarga borib ta'lim olishi uchun davlatimiz ularga barcha shart-sharoitlarni yaratib bergan.

Shuningdek, jadidlar ikki buyuk masalani amalga oshirishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'ygan edilar:

Millatni dunyoning ma'rifatli millatlari qatoriga ko'tarish;

Istiqlol.

Bu ikki masala bir-biri bilan uzviy bog'langan edi. Ya'ni millat ma'rifatli bo'lishi uchun mustaqil bo'lmog'i lozim. Mustaqil bo'lish uchun esa, ma'rifatli bo'lmog'i lozim. Buning uchun ular bir tomondan mustaqillik uchun kurash olib borgan bo'lsalar, ikkinchi tomondan demokratik huquqiy davlat qurish uchun kurashdilar. Bu kurash jadidchilik mafkurasida ikki yo'l bilan olib borildi.

1. Millatning o'z-o'zini anglashiga erishish;

2. Davlat va jamiyat qurishda Sharq va G'arbdagi eng yaxshi an'analarni birlashtirishdan iborat bo'ldi [3].

Jamiyat va millatning taqdiri, uning har bir a'zosi uchun tafakkuriga bog'liqligi haqidagi g'oya jadidlarning falsafiy-tarixiy qarashlarida muhim o'rin tutgan g'oyalardandir.

"Qaysi millatning ichida fidokorlar ko'p bo'lsa, bunday millatning hayoti va bahosi ko'proq bo'ladi, qaysi millatning boshida fidokor shaxslar kam bo'lsa, bu millatning halokati va nobudligi ham yaqin bo'lur". Fazulla Xo'jaevning millatimiz va uning ravnaqi uchun qayg'u urishlari, shu millatni jahonning eng taraqqiy etgan millatlar qatorida ko'rish orzusi uni umrining oxirigacha tark etgan emas. U hamisha o'z xalqi va millatining dardi bilan yashagan va shu millatning ma'rifatli bo'lishi uchun o'z jonini fido etgan buyuk siymodir. Shu o'rinda mamlakatimizning birinchi prezidenti I.A.Karimovning so'zlarini keltirishni joiz deb bildik: "Har qanday inson men shu millat farzandi ekanman, mening ajdodlarim kimlar bo'lgan, millatimning ibtidosi qayda, uning oyoqqa turishi, tiklanishi, shakllanishi jarayoni qanday kelgan degan savollarni o'ziga berishi tabiiy" [4].

Prezidentimiz bir guruh ijodkorlar bilan bo'lgan uchrashuvda Cho'lpon, Fitrat, Fazulla Xo'jaev kabilarni she'r, adabiyot arbobigina emas, balki siyosat arbobi ham deb bilaman, degan edilar. Binobarin, jadidlar ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan hamohang ravishda siyosiy kurash maydoniga ham chiqa boshlagan edilar. Buxoro va Turkiston jadidlari davlatchilik idora usulida ham nazariy, ham amaliy tomondan faol shug'ullandilar Ular amalda o'z hisoblaridan "Usuli jadid", "Usuli savtiya" nomlari bilan mashhur bo'lgan yangi maktablarni tashkil qilib, yosh avlodga milliy ongini shakllantirishga, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini singdirishga harakat qildilar. Shular bilan bir qatorda ular islomni tushunishni isloh qilish borasida diniy aqidalarga odamlarni ko'r-ko'rona ishonmaslikka chaqirdilar, e'tiqodning asosiy mohiyati sifatida ular insonga xudo o'zini har tomonlama namoyon qilishi uchun imkoniyatlarni berganligi va o'zi yashaydigan jamiyatni takomillashtirib borishi zarurligini ko'rsatib o'tdilar. Fitrat "Hayot va hayot g'oyasi" maqolasida shunday yozadi: "O'lo'lo' insonga eng buyuk qudrat va zo'r qurol ato qilgan. Inson uning yordamida olamni zabt etib, o'z itoatiga kiritmog'i mumkin edi. Bu qudrat va qurol nima edi? AQL!" deydi [5].

Jadidlar milliy g'oyasining muhim jihatlardan yana biri-tarixiy ongni rivojlantirish edi. Behbudiyning "Tarix va jo'g'rofiya" risolasida quyidagicha izoh beradi: "Past qolgan va yo taraqqiy qilgan xalqlarni, jahongir bilan davlat yo hukumatlarni bilmoq uchun tarix o'qumoq kerak. Musulmonlik qanday ko'paydi va taraqqiy etdi va na uchun musulmonlar tanazzul etdilar? Va iloji xuddoriy va taraqqiy nadur? Buni bilmoq uchun tarix o'qumoq kerak. Chunki har narsa va shuning asli va nasli tarixidan bilinur". Va yana, 1922 yilda "Haqiqat" ro'znomasida chop etilgan Shohid Ehsanning "Biz va maorif" maqolasida ham "Taraqqiyot, rivojlanish uchun moziyga suyanmoq, ya'ni tarixni chuqur anglamoq zarur" deb uqtiriladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov "O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Modomiki, o'z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni yengib bo'lmas ekan, biz haqqoniy tariximizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur" deb ta'kidlaganda ming bor haq edi.

Taraqqiyotga erishish uchun, birinchi navbatda o'zaro kelishmovchiliklardan qutulish kerak edi. Behbudiyning fikricha, ichki kelishmovchiliklar tobek va mustamlaka tizimining rivojiga olib keldi. Jadidlar millat so'zini ko'p ishlatib, uni xalq ma'nosida qo'llaganlar. Ular mustamlakachilik ostida ezilib kelgan xalq ommasining og'ir ijtimoiy ahvoli va ona-yurtini jahonning taraqqiy etgan mamlakatlariga nisbatan sekin rivojlanayotganligini, xalqning g'aflatda qolganligini tushungan holda, uni ma'rifatga undadilar va islohotlarga sekin-astalik bilan qadam qo'ya boshladilar.

Ma'rifatparvar jadidlar taraqqiyotga faqat tinch yo'l bilan parlament orqali erishishni lozim topganlar. Xalqning tinch-totuvlikka intilishi va o'ziga xos milliy mentaliteti, xususiyatlarini hisobga olgan holda, ular tinch yo'l bilan talabnomalar, namoyishlar uyushtirishga va turli-tuman ruxsat etilgan vosita va imkoniyatlardan foydalanib, chor hukumatidan o'z xalqi

manfaati uchun siyosiy huquqlarni talab qilishga, mamlakat milliy taraqqiyoti uchun ob'ektiv hayotiy talablarga javob beruvchi imkoniyatni yaratishga harakat qilganlar. Qon to'kilishlar, harbiy qurolli to'qnashuvlarga qarshi bo'lsalar ham, jadidlarning "Haq olinur, berilmas!" degan shiordan iborat edi.

Ammo shuni qayd etish lozimki, sobiq mustabid sho'ro tuzumi bunday erkin fikrlarni shiddat bilan bo'g'ib, yanchib tashlashga ishtiyoqmand edi. Munavvar qori "ozodlikni shariatga muvofiqlashtirishda", Abdulla Qodiriy "rahbar xodimlarni obro'sizlantirish"da, Fazulla Xo'jaev "Jadidchilikni ilohiyashtirish"da ayblandi [6].

Shunga qaramasdan ular xalqimiz ongini uyg'otish, o'z o'rni, mavqeini tushunib yetgan, jahondagi rivojlangan mamlakatlarning xalqlari saviyasi darajasiga ko'tarish uchun zo'r berib ilm-ma'rifatni targ'ib etish, yoshlarni unga iloji boricha jalb etish masalalariga e'tiborni qaratdilar. F.Xo'jaev boshchiligidagi bir guruh taraqqiyparvarlar yoshlarga chet tillarni o'rgatish va ularni Angliya, AQSh, Fransiya, Rossiya, Germaniya singari rivojlangan mamlakatlarga yuborib, o'qitish masalalarini ham qo'ydilar. Qisman bu ishlarni amalga oshirishga muvaffaq ham bo'ldilar. Biroq mustabid tuzum bu ishlarning hammasini taqiqlab, yuqorida nomlari tilga olingan va ularning biz hali nomlarini aytmagan talay hamfikrlarni qirib tashladi.

Xulosa va takliflar. Mana bugun esa mustaqillik sharofati bilan yurtboshimiz rahnamoligida dunyodagi xoxlagan mamlakatga borib ta'lim olaman degan yoshlarga barcha imkoniyatlar yaratilgan. Bunday imkoniyatlarga boy mamlakat hech qayerda bo'lmasa kerak. Buni hech qachon o'sib kelayotgan yosh alod unutmazligi kerak!

Bugungi kunda yosh avlod uchun ajdodlar merosini asrab-avaylab, mustaqillik, huquqiy davlat, demokratik jamiyat qurishda Fayzullo Xo'jaev va barcha jadidlarning oltindan-da qimmat fikr va g'oyalari dasturilamal bo'lib xizmat qiladi, desak mubolag'a bo'lmaydi. "Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" nomli kitobda qayd etib o'tilganidek, erkin fikrlovchi shaxslarni tarbiyalash, millat tafakkuri va millat mafkurasining eng ilg'or namunalarini aks ettirgan asarlar yaratish, xorijiy tillarni mukammal bilish, o'qituvchi kadrlar saviyasiga e'tibor, ixtiyoriy kasb-hunar o'rgatishni joriy etish kabi tamoyillar o'tgan asr boshlaridayoq jadidchilik vakillarini o'ylantirgan va ularning bu yo'ldagi bevosita sa'y-harakatlari bugungi ta'lim sohasidagi islohotlarning poydevoriga asos yaratdi.

ADABIYOTLAR

1. Абдурауф Фитрат. Мухторият // Танланган асарлар. 3-жилд. Т.: «Маънавият», 2003. 198-б.
2. Ўзбекистонда ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихидан. Т.: «Ўзбекистон», 1995. 213-б.
3. Хўжаев Ф. Бухоро инқилобининг тарихига материаллар.Т.: Фан, 1997. 160-б.
4. Бухарская Республика. "Позиция", Т, 1993, №1, стр. 16-19
5. А. Жуманазар. Бухоро таълим тизими тарихи. - Тошкент: Akademnashr, 2016
6. Туркистон вилоятини газети.1913. 98-сон.